

ISLOM MOLIYASI MODERNIZASIYA VA IDROK

Ermatov Musojalil Komilovich

*“Alfraganus university” “Moliya” kafedrasi dosenti v.b.
Iqtisod fanlari nomzodi*

Mamlakatimiz iqtisodiyoti infratuzilmasida amalga oshirilayotgan moliyaviy islohatlari beqiyos. Unda bozor munosabatlarini mukammal amalga oshirishda erkin, odil va iqtisodiy qonun talablarini joriy etish asosiy mezon hisoblanadi. Bunda har bir soha va tarmoqlar tizimining qon tomiri bo’lgan bank-moliya tizimi faoliyatiga yangi texnologiya xizmat turlarini joriy etish va tijorat banklar raqobat bardoshli bo’lishlari uchun ular faoliyatini muntazam tarkibiy va tadrijiy modernizasiya ishlarini olib borishni talab etadi.

Globalashib borayotgan dunyo iqtisodiyotidagi moliya rusurslari tahsimotiga xizmat ko’rsatuvchi tashkilot va muassasalari talaygina. U makonda – xalqaro tavorlar, turli moliyaviy xizmatlar, tabiiy resurslar, ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari bozori tashkil etilgan bolib, ular o’rtasida uzviy aloqalarida moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy bog’liklar mavjud. Ularga xizmat ko’rsatish sohasini yanada kengaytirish, moliyalashtirish ko’lamida global-texnologik, moliyaviy axborotlar, madaniy tizim o’choqlari kengayib borishi natijasidagi iqtisodiy ijtimoiy xayot ko’lamiga yakdil va halollik etishmasligi muammolari bor.

Ushbu muammo markazini mamlakatimiz prezidenti Sh.M. Mirziyoev bank-moliya sektorini isloh qilish yo’nalishlarini quyidagicha belgiladi:

“Moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko’rsatishni modernizasiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo’lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish lozim¹⁹¹.

Mazkur belgilangan vazifalar bajarilishi doirasida, bank xizmatlarini modernizasiya qilish, unda bank ishining zamonaviy standartlarini joriy etish, bank faoliyatini yangi bank xizmatlari texnologiyalariga kompleks transformasiya qilish, tijorat banklari moliyaviy xolatlarini mo’tadil o’sishiga amal qilish natijasida mamlakat makroiqtisodiy muvozanatlashgan siyosatga erishishdan iboratdir.

Zamonaviy dunyo – ulkan moliyaviy bellashuv maydoniga aylandi. U ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-moliyaviy sohalarda yuqori darajadagi integratsiyalashish xususiyatlarini namoyon etmoqda. Shuning baroborida, dunyo iqtisodiyoti sohasida moliyaviy xizmatlar ko’rsatish ikki qutbga ajraldi. Din shariati va qonun qoidalari asosida shakllangan Islom iqtisodiyoti birlamchi,

¹⁹¹ Qarang: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025 yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to’g’risidagi PF-5992. 2020 yil. 12-may.-1 b.

An’anaviy iqtisodiyotga tayangan evropacha iqtisodiyot ikkilamchi o’rinni egallamoqda.

Ilmiy tadqiqotlar natijasi shundan dalolat bermoqda, Islom moliyasiga bo’lgan talab barcha an’anaviy iqtisodiyotga tayangan evropacha iqtisodiyot tizimidagi davlatlari moliya tizimida xizmat ko’rsatishi dolzarb muammo hisoblangan, sababi Islom shariyatida ishlab chiqarishda halollik, yangi texnika va texnologiyalarni yaratilishida insonning aqliy mexnat mahsulini to’g’ri taqdirlash, diniy qonun qoidalari va me’yorlari joriy etilishi talaygina vaqtni talab etadi.

Mamlakatimiz siyosiy iqtisodiyotida Islom aqidalariga tayangan moliyaviy xizmatiga jamiyat ehtiyoji jadallik bilan ortib bormoqda. Shu bois, kelajakdagi iqtisodiy rivojlanish strategiya tadbirlari ushbu xizmat ko’rsatish soha yo’nalishiga qaratilmoqda.

“O’zbekiston — 2030” strategiyasi to’g’risida belgilangan iqtisodiy soha maqsad yo’nalishlarida markaziy o’rindan joy olgan. Xususan, unda:

50-maqsad. Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish.

Banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me’yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish.

Kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish belgilangan¹⁹².

Ushbu strategiya, davlat moliya xizmatlari rivojlanishini yanada yuqori pog’onaga ko’tarilishi kutilmoqda. Chunki, mamlakatimizdagi ishbilarmonlar va tadbirkorlar muhitida Islom moliyasida biznes yuritishda ishtiyoqi yanada kuchayib bormoqda.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida moliyaviy texnologiyalarida xizmat ko’rsatish jarayoniga nazar solsak, sharq va g’arb mamlakatlarining bank xizmatlari ko’rsatilishida Islom shariati asosida moliya xizmatlarini ko’rsatish ko’lami yuqori sur’atlarni tashkil etadi. Chunki, Islom qadiryati diniy bag’ri kenglik mafkurasi asnosida, insonni dini, e’tiqodi va millatidan qat’iy nazar moliya sohasida halollik va tenglik muvozanatini saqlab qolish kabi kuchli targ’iboti mavjud. Mavjud muammolarning echimi an’anaviy banklar tizimiga muqobil sifatida Islom moliya-bank xizmatlari jalb etilishi kunning dolzarb muammosi hisoblanmoqda. Ushbu munozaraga mamlakatimiz prezidenti Sh.M. Mirziyoev ham o’z fikrini quyidagicha bayon etgan.

Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo’yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati etib keldi¹⁹³.

Ushbu mazmun borasida tijorat banklarining tarkibiy tuzilishini qayta qurish, islom moliyasining iqtisodiyot tizimidagi o’rnini aniqlash va uni moliya-bank tizimidagi istiqbolini belgilash dolzarb muammolardan hisoblanib, bu

¹⁹² Qarang: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O’ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TO’G’RISIDA Farmoni 15 b.

¹⁹³ Qarang: Prezident Shavkat Mirziyoevning 2020 yildagi parlamentga murojaati 29.12.2020

borada bank tizimida modernizatsiya jarayonlarining o’rni muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy infratuzumasida moliyaviy tahchillik yoki sifatli bank xizmat ko’rsatkichlari inqiroziga duch kelganda bank tizimi tarmoqlarida modernizatsiya olib borilishiga talab ortadi.

Biz avvalo, modernizatsiya so’ziga aniqlik kiritsak, modernizatsiya fransuzcha “moderne” so’zidan olingan bo’lib, o’zbek tilida eng yangi, zamonaviy ma’nolarini anglatadi. Iqtisodiy tilda esa, ishlab chiqarish texnologiyalarini yoki xizmat turlarini yangilash, zamonaviylashtirish, yoki uni zamon talablariga muvofiq o’zgartirish kabi tushunchalarni anglatadi¹⁹⁴. Demak, bank faoliyatidagi modernizatsiya – zamon talabiga mos tarzda xizmat mahsulotlarini ko’paytirishdan iborat.

Bugungi kundagi giosiyosat dolzarb masalasi Yangi O’zbekistonni iqtisodiy barqarorligini yanada mustahkamlashdan iborat. Yangi marralardagi moliyaviy uflarni zarb etish, buning uchun esa, bank tizimida yangi bank xizmatlarini joriy etish zamon va makon talab darajasiga ko’tarish istagi kuchaymoqda.

Bank tizimida modernizatsiya ishlarini olib borishda, qanday bank xizmatlari jamiyat talablariga javob bermay, ma’naviy eskirish taraddudida ekanligi aniqlab olishimiz joiz.

Bizning tadqiqot jarayonlarimiz shuni ko’rsatmoqdaki, Islom moliyasi faoliyatidagi xizmatlarni zamonaviylashtirish jarayonlarida, ularni mikro va makro darajadagi modernizatsiya ishlarini olib borishni talab etadi¹⁹⁵.

Islom moliyasi tartibi joriy etilishida mikro darajadagi modernizatsiya bu ma’lum bir bank faoliyatidagi zamonaviy xizmatlarni tashkil etish bo’lib, makro darajadagi modernizatsiya esa, bank tizimidagi zamonaviy xizmatlarni tashkil etish jarayonidagi modernizatsiya ishlari hisoblanadi.

Chunki, avvalo mikro darajadagi, ya’ni bir tijorat banki tarkibida Islom moliyasi faoliyati modernizatsiya ishlarini joriy etish lozim. Undagi ushbu xizmatlarga talab yuqori va bankning iqtisodiy ko’rsatkichlari natijasi moliyaviy o’sish sur’atlari ularning miqdoriy o’sish bilan birga olib borilib, shuning barobarida tijorat bank faoliyatlarining barcha jabhalarida modernizatsiya ishlari olib borilsa, bankning iqtisodiy o’sish sur’ati yanada rivojlanadi deb hisoblaymiz.

Bank va moliya tizimini modernizatsiya qilishda ijtimoiy sohalarni qamrab olishi lozim. Ijtimoiy modernizatsiya jarayoni inson omili bilan bog’liq bo’lib, o’z ichiga quyidagilarni oladi:

- 1) Islom huquqi (fikh) zamonaviy bilim va malakaga ega kadrlar tayyorlash tizimini yo’lga qo’yish va uni rivojlantirish;
- 2) Mehnat munosabatlarini takomillashtirish asosida inson omilini tashabbuskorlik ruhiyatini rivojlantirish;
- 3) Bank tizimida ta’limni, kadrlar tayyorlash tizimini tarkibiy tuzulishini Islom talablariga moslashtirishdan iborat.

¹⁹⁴ Qarang: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/modernizatsiya-uz/Modernizatsiya>

¹⁹⁵ Qarang: M.K. Ermatov Banklarda restrukturizatsiya jarayonlar/Ilmiy muzokora. “Iqtisod-moliya”. 2007 y. 7–b.

Foydaniilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risidagi PF-5992. 2020 yil. 12-may. 1 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA Farmoni 15 b.
3. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2020 yildagi parlamentga murojaati 29.12.2020
4. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/modernizatsiya-uz/Modernizatsiya>
5. Ermatov M.K. Banklarda restrukturizatsiya jarayonlar/Ilmiy muzokora. “Iqtisod-moliya”. 2007 y. 7–b.

**ISLOMDA INVESTITSIYA VA AKSIYALAR SAVDOSIGA
DOIR MUHIM MASALALAR**

*PhD, dots. **Batirova N.***

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti

G‘ulomov Anvarjon Ahror o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasitalabasi

Bugungi iqtisodiy globallashuv jarayonida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega element hisoblanadi. Boisi, mazkur faoliyat mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasini kengaytirishga va rivojlantirishga, iqtisodiyotning barqaror hamda progressiv o‘shishiga xizmat qiladi. Shu bois investitsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi har bir davlat o‘zining bu boradagi aniq maqsadlarini ifodalovchi yo‘l xaritasini ishlab chiqadi. Xususan, Islomiy moliya tarmog‘i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o‘zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, islomiy moliya muassasalari yalpi aktivlari miqdori 2026-yilga borib 5,9 trillion AQSH dollarini tashkil etishi kutilmoqda. Shundan yetti foizdan ziyodi, ya‘ni 416 milliard dollari islomiy fondlarga to‘g‘ri keladi. Islomiy fondlar tez rivojlanayotgan soha bo‘lib, hozirda o‘shish ko‘rsatkichi 34% ni ko‘rsatmoqda¹⁹⁶.

Barchamizga ma‘lumki, islomiy fondlar, asosan, investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanadi.

Mamlakatimizda ham investitsiyalarni turli sohalarga, masalan, moliya, ta‘lim, tibbiyot, biznes, sanoat kabi sohalarga jalb etish, ularning oqimini kengaytirish, investitsion faoliyatni rag‘batlantirish bo‘yicha turli reja va dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Investitsiya davlat budjetiga ham katta miqdorda tushum olib kirishi mumkin. Shuni bilgan holda, davlat tadbirkorlarga ham investitsiya ajratmoqda.

Endi ish boshlamoqchi bo‘lgan, yetarlicha mablag‘ga ega bo‘lmagan ish yuritishga qiziqishi, qobiliyati va layoqati bo‘lgan tadbirkorlar uchun kapitalga ega bo‘lish va ishni boshlashning eng samarali va ishonchli usuli bu investitsiyadir. Investitsiyada tadbirkor o‘z loyihasini investorlarga taqdim etadi va kimga ma‘qul kelsa, u o‘z sarmoyasini kiritadi va biznesga sherik bo‘ladi.

¹⁹⁶ Islamic Finance Development Report 2022(50th page).